

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA  
TADQIQOT INSTITUTI**



**“Mintaqaviy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalari” nomli  
respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami**

**(2026-yil 15-aprel)**

**Toshkent – 2026-yil**

**Kaxarova Munira Maxamadjanovna**  
*O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot  
instituti yetakchi ilmiy xodimi, siyosiy fanlar doktori*

## **AYOLLAR JINOYATCHILIGI HUDUDIY DETERMINATSIYASINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy-huquqiy tabiati, uning hududlar kesimidagi o‘ziga xos dinamikasi va mintaqaviy determinantlari ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasining turli ma‘muriy-hududiy birliklarida ayollar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlari qiyosiy tahlil qilinib, mintaqaviy profilaktikaning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Ayollar jinoyatchiligi, kriminologik portret, hududiy determinatsiya, urbanizatsiya, profilaktika, ijtimoiy nazorat, mintaqaviy xususiyatlar.

## **НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ДЕТЕРМИНАЦИИ ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ**

**Аннотация.** В статье исследуются социально-правовая природа женской преступности, её специфическая динамика в разрезе территорий и региональные детерминанты с научной точки зрения. Автор проводит сравнительный анализ причин и условий совершения правонарушений женщинами в различных административно-территориальных единицах Республики Узбекистан, а также определяет приоритетные направления региональной профилактики.

**Ключевые слова:** женская преступность, криминологический портрет, территориальная детерминация, урбанизация, профилактика, социальный контроль, региональные особенности.

## **SCIENTIFIC AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF THE TERRITORIAL DETERMINATION OF FEMALE CRIME**

**Abstract.** The article examines the socio-legal nature of female crime, its specific territorial dynamics, and regional determinants from a scientific perspective. The author provides a comparative analysis of the causes and conditions of offenses committed by women across various administrative-territorial units of the Republic of Uzbekistan and identifies priority areas for regional prevention.

**Keywords:** female crime, criminological profile, territorial determination, urbanization, prevention, social control, regional characteristics

Ayollar jinoyatchiligi zamonaviy kriminologiyaning eng murakkab va ko'p qirrali obyektlaridan biri bo'lib, u nafaqat huquqiy, balki chuqur ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy ildizlarga ega. Umumiy jinoyatchilik tizimida ayollar segmenti o'zining ijtimoiy xavflilik darajasi, shaxs xususiyatlari hamda jinoiy qilmishni sodir etish mexanizmi bilan erkaklar jinoyatchiligidan tubdan farq qiladi. So'nggi yillarda olib borilgan kompleks kriminologik tadqiqotlar shuni tasdiqlamoqdaki, xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning geografik taqsimlanishi va dinamikasi shunchaki demografik zichlik yoki tasodifiy omillar mahsuli emas. Aksincha, bu jarayon har bir muayyan hududning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, urbanizatsiya sur'atlari, shuningdek, mintaqaviy madaniy-maishiy an'analar va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liqdir.

Mavzuning dolzarbligi birinchi navbatda ayol shaxsining jamiyatdagi strategik o'rni — oila barqarorligi va avlodlar tarbiyasining asosiy bo'g'ini ekanligi bilan belgilanadi. Ayol tomonidan sodir etilgan jinoyat jamiyat uchun ikki karra ijtimoiy xavf tug'diradi: birinchidan, huquqiy tartibotning buzilishi bo'lsa, ikkinchidan, ijtimoiy institut sifatida oilaning inqiroziga va voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlikning keskin ortishiga sabab bo'ladi. Shu bois, ayollar jinoyatchiligini hududlar kesimida tahlil qilish, har bir mintaqaning o'ziga xos "kriminal manzarasi"ni aniqlash va shu asosda manzilli profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kun huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biridir.

Hududiy determinatsiya omili urbanizatsiyalashgan markazlar va agrar viloyatlar o'rtasidagi jinoyatchilik tarkibida keskin tafovutlarni yuzaga keltiradi. Yirik shaharlardagi ijtimoiy anonimlik, iqtisodiy mobillik va raqamli texnologiyalarning keng yoyilganligi ayollar orasida firibgarlik va intellektual jinoyatlarning ildiz otishiga xizmat qilsa, chekka hududlardagi nosog'lom ma'naviy-ruhiy muhit va iqtisodiy qaramlik maishiy yo'naltirilgan zo'ravonlik jinoyatlarining asosiy turtkisi bo'lib qolmoqda. Ushbu determinantlarni chuqur o'rganish nafaqat jinoyatga jazo berish, balki ayolni jinoyatchiga aylantiruvchi hududiy va ijtimoiy sabablarni bartaraf etish, uning ijtimoiy rehabilitatsiyasini ta'minlash orqali jamiyatdagi ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga xizmat qiladi.

Toshkent shahri va viloyat markazlari kabi yirik urbanizatsiyalashgan hududlarda ayollar jinoyatchiligining tarkibida intellektual va iqtisodiy yo'naltirilgan qilmishlar ustuvorlik qiladi. Xususan, poytaxt misolida firibgarlik, o'zganing mulkini o'zlashtirish va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq jinoyatlarning yuqori ko'rsatkichlari kuzatiladi. Buning asosiy sababi sifatida ushbu hududlarda iqtisodiy faollikning yuqoriligi, anonimlik darajasining kengligi va ijtimoiy nazoratning zaiflashuvini ko'rsatish mumkin. Markaziy hududlarda yashovchi ayol jinoyatchilarning kriminologik portretida yuqori ta'lim darajasi va ijtimoiy mobillik kabi xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Statistik ma'lumotlarning hududiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar jinoyatchiligining mutlaq ko'rsatkichlari aholi zich joylashgan va iqtisodiy faollik yuqori bo'lgan hududlarda to'plangan. Xususan, 2025-yil davomida Toshkent shahri (1 625 ta), Farg'ona (1 079 ta), Toshkent viloyati (815 ta), Andijon (746 ta) va Samarqand (729 ta) viloyatlari ushbu yo'nalishda yetakchilik qilmoqda. Biroq, jarayonning asl ko'lamini tushunish uchun ushbu raqamlarni nisbiy ko'rsatkichlarga, ya'ni har 100 ming aholiga to'g'ri keladigan koeffitsiyentga aylantirish kriminologik jihatdan muhimroq hisoblanadi.

Agar mazkur raqamlarni hududlardagi aholi soniga nisbatan tahlil qilsak, Toshkent shahri nafaqat mutlaq soni, balki intensivlik darajasi bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkichni qayd etadi. Poytaxtda har 100 ming aholiga to'g'ri keladigan

ayollar jinoyatchiligi koeffitsiyenti taxminan 54,1 birlikni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Farg'ona viloyatida 26,8, Toshkent viloyatida 27,1, Andijonda 22,6 va Samarqandda 17,3 ni tashkil etadi.

Bunday nisbiy farqlar hududlarning ijtimoiy-demografik tuzilishi bilan izohlanadi. Masalan, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida ayollar jinoyatchiligining mutlaq soni yuqori bo'lsa-da, aholining umumiy soni ko'pligi sababli "jinoiy intensivlik" koeffitsiyenti Toshkent shahriga qaraganda qariyb 2-3 barobar pastroqdir. Bu poytaxtda ijtimoiy nazoratning pastligi, migratsiya jarayonlarining kuchliligi va ayollarning iqtisodiy jinoyatlarga jalb etilish darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

Ushbu tafovutlar har bir hudud uchun individual profilaktika dasturlarini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi. Toshkent shahrida asosiy e'tiborni tizimli firibgarlik va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashga qaratish lozim bo'lsa, aholi zich joylashgan vodiy viloyatlarida ijtimoiy-maishiy muhitni sog'lomlashtirish va ayollarning bandligini ta'minlash ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi.

Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mintaqalarda, jumladan, Surxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida ayollar jinoyatchiligining kriminologik manzarasi o'ziga xos an'anaviy va ijtimoiy-iqtisodiy determinantlar ta'sirida shakllanadi. Ushbu hududlarda ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyat yoki huquqbuzarliklarning asosiy qismi oila-turmush doirasidagi nizolar hamda past darajadagi mulkiy tajovuzlar, xususan, mayda o'g'rilik qilmishlari bilan xarakterlanadi. Bunday kriminal xulq-atvorning yuzaga kelishida mintaqaviy mehnat bozoridagi cheklangan imkoniyatlar, ayollar o'rtasidagi ishsizlik darajasining yuqoriligi va natijada kelib chiquvchi iqtisodiy qaramlik muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy jihatdan erkaklarga yoki oilaning boshqa a'zolariga to'liq qaram bo'lish ayol shaxsida doimiy ruhiy zo'riqish va ijtimoiy chorasizlik hissini uyg'otib, uning mulkiy jinoyatlarga qo'l urishiga yoki ichki nizolarning agressiv shaklda namoyon bo'lishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, ushbu hududlardagi patriarxal oilaviy munosabatlar tizimi ayollar jinoyatchiligining viktimologik jihatlarini belgilab beradi. Oiladagi

an'anaviy iyerarxiya va ba'zan kuzatiladigan qat'iy cheklovlar natijasida kelib chiqadigan maishiy keskinliklar ko'p hollarda ayollarning o'z hayoti va sog'lig'ini himoya qilish maqsadida sodir etadigan "reaktiv" jinoyatlariga turtki bo'ladi. Bu yerda jinoyat nafaqat qonunbuzarlik, balki uzoq vaqt davomida to'plangan ijtimoiy-psixologik bosimning oqibati sifatida namoyon bo'ladi.

Chegara oldi hududlarida esa ayollar jinoyatchiligi mutlaqo boshqacha, transchegaraviy xarakterga ega bo'lgan spetsifik xususiyatlarni kasb etadi. Bu hududlarda istiqomat qiluvchi ayollarning tovar-moddiy boyliklarni noqonuniy olib o'tish yoki kontrabanda sxemalariga jalb etilishi ularning ijtimoiy holatidan jinoiy guruhlar tomonidan "niqob" sifatida foydalanish strategiyasi bilan bog'liq. Ayollarning bojxona va chegara nazoratidan o'tishdagi nisbiy "imtiyozlari" yoki ularga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy ishonch omilidan g'arazli maqsadlarda foydalanish holatlari kuzatiladi. Ushbu hududlarda jinoyatchilik nafaqat iqtisodiy ehtiyoj, balki mintaqaviy geografik imkoniyatlardan kelib chiquvchi kriminal tadbirkorlik shakli sifatida shakllanadi, bu esa o'z navbatida mazkur mintaqalar uchun alohida xavfsizlik va profilaktika choralari ishlab chiqishni taqozo etadi.

Farg'ona vodiysi mintaqasi, xususan, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida ayollar jinoyatchiligining kriminologik manzarasi demografik zichlik va an'anaviy ijtimoiy-diniy qadriyatlarining kuchli ta'siri ostida o'ziga xos transformatsiyaga uchramoqda. Mazkur hududlarda aholi o'rtasida ma'naviy-axloqiy nazoratning yuqoriligi hamda jamoatchilik fikrining ustuvorligi sababli, ayollar tomonidan ochiq shaklda sodir etiladigan g'arazgo'ylik niyatidagi jinoyatlar, xususan, o'g'rilik va firibgarlik holatlarining izchil kamayishi kuzatilmoqda. Bu holat mintaqadagi mahalla instituti va qarindosh-urug'chilik aloqalarining jinoyatni tiyib turuvchi tabiiy to'siq sifatida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi.

Biroq, ushbu ijtimoiy nazoratning kuchliligi ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida oila-turmush doirasidagi nizolarning yashirin (latent) qolishiga ham sabab bo'lmoqda. An'anaviy qadriyatlar ta'sirida ayollar ko'pincha oiladagi zo'ravonlik yoki tazyiqlarni jamoatchilikka oshkor qilmaslikka intilishadi,

bu esa o‘z navbatida nizolarning surunkali tus olishiga va kelajakda og‘irroq oqibatli maishiy jinoyatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Bunday hududlarda latentlik darajasining yuqoriligi kriminologik profilaktika jarayonida nafaqat huquqiy, balki psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi.

Shu bilan birga, keyingi yillarda vodiy viloyatlarida ayollarning giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq jinoiy faoliyatga jalb etilishi xavotirli tendensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu holat ko‘pincha ayollarning iqtisodiy chorasizligi yoki jinoiy guruhlar tomonidan ayol shaxsiga nisbatan jamiyatdagi “ishonch krediti”dan niqob sifatida foydalanish istagi bilan bog‘liqdir. Bu mintaqada jinoyatchilikning oldini olishda mahalla va boshqa ijtimoiy institutlarning rolini faqatgina nazorat qiluvchi emas, balki muammoli oilalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar bilan individual ishlovchi, ularning real ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi organ sifatida qayta ko‘rib chiqish strategik ahamiyatga ega.

Ayollar jinoyatchiligining hududiy xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida kriminologiya fani uchun bahsli bo‘lgan bir nechta fundamental muammolar yuzaga chiqmoqda. Birinchi navbatda, urbanizatsiya va ijtimoiy nazorat o‘rtasidagi nisbat masalasi alohida munozarani talab etadi. An’anaviy qarashlarga ko‘ra, yirik shaharlarda jinoyatchilikning yuqoriligi ijtimoiy jilovlash mexanizmlarining zaifligi bilan izohlansa-da, zamonaviy raqamli nazorat (CCTV, biometrik identifikatsiya) sharoitida Toshkent shahri kabi megapolislarda ayollar jinoyatchiligining o‘rib borishi “anonimlik nazariyasi”ni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Bu yerda bahsli nuqta shundaki, texnologiya nazorati ortgani bilan, shaxslararo ijtimoiy mas’uliyatning sovishi (atomizatsiya) jinoiy prevensiyada texnikadan ko‘ra insoniy omil muhimroq ekanini ko‘rsatmoqda.

Ikkinchi munozarali jihat — iqtisodiy omil va jinoiy motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Tadqiqot natijalari qishloq joylarida ayollar jinoyatchiligini “chorasizlik va iqtisodiy qaramlik” bilan bog‘lasa, shahar muhitida “iqtisodiy farovonlikka intilish va g‘araz” yetakchi o‘ringa chiqmoqda. Bu esa

kriminologiyadagi klassik “muhtojlik” konsepsiyasining ayollar jinoyatchiligida transformatsiyaga uchrayotganini anglatadi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: ayolni jinoyatga yetaklovchi kuch obyektiv iqtisodiy qiyinchilikmi yoki subyektiv iste‘molchilik psixologiyasimi? Hududlar kesimidagi tafovutlar shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilikning oldini olishda faqat moddiy yordam ko‘rsatish emas, balki ma‘naviy qadriyatlar degradatsiyasiga qarshi kurashish birlamchi ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, Farg‘ona vodiysi misolida ko‘rilgan “ijtimoiy-diniy qadriyatlar va latentlik” muammosi ham ilmiy bahslarga sabab bo‘lmoqda. Bir guruh tadqiqotchilar kuchli mahalliy nazoratni jinoyatchilikni jilovlovchi omil sifatida baholasa, boshqalari bunday muhit ayollarning huquqlari poymol etilishini va oilaviy zo‘ravonlikni yashirishga xizmat qilishini ta‘kidlaydilar. Bu yerda ziddiyat shundaki, tashqi statistik barqarorlik ortida ichki viktimologik jarayonlarning chuqurlashishi “ijtimoiy nazorat” institutini isloh qilish zaruratini tug‘diradi.

Nihoyat, chegara oldi hududlarida ayollarning kontrabanda va transchegaraviy jinoyatlarga jalb etilishi masalasida “aybdorlik va qurbonlik” chegarasi juda nozikdir. Ko‘p hollarda jinoiy guruhlar ayollarning ijtimoiy zaifligidan foydalanib, ularni vosita sifatida ishlatadi. Bu esa huquqni muhofaza qilish organlari oldida murakkab dilemmani qo‘yadi: ayolni og‘ir jinoiy jazoga tortish kerakmi yoki uni jinoiy ekspluatatsiya qurboni sifatida rehabilitatsiya qilish lozimmi? Mazkur munozarali nuqtalar ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashda an‘anaviy yondashuvlardan voz kechib, har bir hudud va vaziyatning kriminologik o‘ziga xosligini inobatga olishni taqozo etadi.

Ayollar jinoyatchiligining hududiy xususiyatlarini tahlil qilish natijasida sohadagi vaziyatni sog‘lomlashtirish va profilaktika samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Hududiy determinatsiya tamoyili asosida “Kriminologik xarita”larni joriy etish. Bunda, har bir hududning (urban, agrar, chegara oldi) o‘ziga xos jinoyatchilik mazmunidan kelib chiqib, profilaktika choralari individuallashtirish zarur. Masalan, Toshkent shahri va yirik markazlarda asosiy urg‘uni kiberjinoyatchilik va

moliyaviy firibgarlikka qarshi “raqamli gigiyena” targ‘ibotiga qaratish lozim bo‘lsa, qishloq hududlarida oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning oldini oluvchi viktimologik himoya tizimini kuchaytirish talab etiladi.

2. Ayollar resotsializatsiyasida “Singapur modeli”ni (Yellow Ribbon) mahalliyashtirish zarur. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollarning qayta jinoyat sodir etishini oldini olish uchun ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning majburiy “post-penitensiar xaritasi”ni ishlab chiqish lozim. Bunda ayolni ijtimoiy tahqirlashdan himoya qilish, uni turar joy va mutaxassisligi bo‘yicha kafolatlangan ish bilan ta‘minlash davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshirilishi shart.

3. “Xogushi” (Yaponiya) tizimi asosida mahallabay individual murabbiylikni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Bunda, ijtimoiy xavfli ahvoldagi yoki jinoyat sodir etishga moyil ayollar bilan ishlashda faqat ma‘muriy nazorat emas, balki ma‘naviy-psixologik ko‘mak institutini shakllantirish lozim. Mahallalardagi xotin-qizlar faollari va psixologik xizmat vakillari ishtirokida “ijtimoiy kouch” tizimini joriy etish, ayolning oiladagi mavqeini tiklash va uning ruhiy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

4. Iqtisodiy mustaqillik va “Ayollar klasterlari”ni tashkil etish kerak. Agrar va ishsizlik darajasi yuqori hududlarda ayollar jinoyatchiligining bosh omili bo‘lgan “iqtisodiy qaramlik”ni bartaraf etish uchun imtiyozli mikro kreditlash tizimini kengaytirish lozim. Qishloq joylarida ayollar uchun kichik sanoat zonalari va uy mehnatiga asoslangan “mikro-klasterlar” tashkil etish orqali ularning bandligini ta‘minlash, mulkiy jinoyatlarning tabiiy ravishda kamayishiga olib keladi.

5. Latentlikka qarshi “Anonim himoya” raqamli platformasini kuchaytirish zarur. Ayniqsa Farg‘ona vodiysi kabi ijtimoiy nazorat kuchli hududlarda ayollarning oilaviy zo‘ravonlikni yashirish holatlarini kamaytirish uchun ko‘p bosqichli anonim yordam tizimini yaratish zarur. Bu tizim nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari, balki mustaqil psixologik va yuridik markazlar bilan integratsiyalashgan bo‘lishi, ayolga “qurbon” statusidan chiqish va jinoyatga qo‘l urmaslik uchun xavfsiz muhit yaratishi lozim.

6. Viktimologik profilaktika va ta'lim dasturlarini kengaytirish lozim. Xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha hududiy o'ziga xoslikni inobatga oluvchi ta'lim modullarini ishlab chiqish. Masalan, chegara oldi hududlarida ayollarni transchegaraviy jinoyatlarga jalb etilish xavfidan ogohlantiruvchi, shaharlarda esa firibgarlik sxemalarini fosh etuvchi maxsus treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashda faqat jazo choralari tayanishdan voz kechib, jinoyatning ildizi bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy omillarni bartaraf etishga imkon beradi.

Xullas, ayollar jinoyatchiligining hududiy o'ziga xosligini inobatga olgan holda, profilaktik chora-tadbirlarni "hududiy determinatsiya" tamoyili asosida tashkil etish lozim. Toshkent shahri va viloyat markazlarida firibgarlikka qarshi ijtimoiy-huquqiy targ'ibotni kuchaytirish, chekka hududlarda esa ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va oilaviy zo'ravonlik qurbonlarini rehabilitatsiya qilish ustuvor vazifa hisoblanadi. Jinoyatchilikning mintaqaviy manzarasini doimiy monitoring qilish ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan manbalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi (2026 yil 6 mart).
2. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2025-yilning 12 oyi bo'yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026.
3. Ministry of Justice, Japan: White Paper on Crime. [moj.go.jp/en/housou/statistics/housou\\_statistics01.html](http://moj.go.jp/en/housou/statistics/housou_statistics01.html).
4. UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime): Crime and Criminal Justice Statistics. [unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/crime-and-criminal-justice.html](http://unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/crime-and-criminal-justice.html)., Ruth Benedict: "The Chrysanthemum and the Sword"., Journal of Criminology: "Female Offending in Japan: Trends and Causes".
5. Singapore Police Force (SPF): Annual Crime Statistics Report 2023. [police.gov.sg/Statistics/Crime-Stats](http://police.gov.sg/Statistics/Crime-Stats).
6. Ministry of Home Affairs (MHA), Singapore: Singapore's Approach to Criminal Justice. [mha.gov.sg/news-room/responses](http://mha.gov.sg/news-room/responses)., Yellow Ribbon Singapore (YRS): Impact Reports on Rehabilitation. [yellowribbon.gov.sg](http://yellowribbon.gov.sg).

## Mundarija

Kirish soʻzi.....	3
<b>Berdialiyev B.E.</b> Mintaqaviy jinoyatchilik dinamikasi va uning tendensiyalari: ijtimoiy profilaktikaning kriminologik ahamiyati.....	4
<b>Nigmatov R.O.</b> Buyuk Britaniyada jazo tayinlash siyosatining zamonaviy evolyutsiyasi: institutsional va huquqiy tahlil.....	12
<b>Якубов А.С., Азим Ш. О.</b> Здоровье населения и генофонд нации под охраной уголовного закона.....	25
<b>Ollamov Ya.Y., Nurmetov Q.A.</b> Zamonaviy korrupsiya koʻrinishlarining turlari va shakllari.....	43
<b>Maxsadov M.I.</b> Hududiy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalari (Toshkent shahri Uchtepa tumani misolida).....	56
<b>Kaxarova M.M.</b> Ayollar jinoyatchiligi hududiy determinatsiyasining ilmiy-amaliy asoslari.....	68
<b>Payziyev D.Yu., Abduqodirov F.F.</b> Yangi Oʻzbekistonda giyohvandlik bilan bogʻliq jinoyatchilikka qarshi kurashish va oldini olish masalalari.....	77
<b>Axmedov F.S.</b> Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam koʻrsatishning huquqiy asoslari.....	82
<b>Roʻziyeva G.S.</b> Giyohvandlik muammosi va uning profilaktikasi.....	92
<b>Mirzayev J.U.</b> Qayta jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan profilaktik choratadbirlar tizimini takomillashtirish.....	103
<b>Xaydarov M.M.</b> Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashda jinoyat-huquqiy choralarni takomillashtirish: Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muammolar va islohot yoʻnalishlari.....	109
<b>Tulebaev B.R.</b> Oʻzbekiston Respublikasida qurol muomalasi sohasini huquqiy taʼminlashning oʻziga xos xususiyatlari.....	116
<b>Isayev S.A.</b> Transmilliy narkotahdidlar: zamonaviy tendensiyalar, muammolar va qarshi kurash mexanizmlari.....	126
<b>Jamoldinov X.B.</b> Kiberjinoyatchilik: zamonaviy tahdid va uning mintaqaviy xususiyatlari.....	139
<b>Payziyev A.M.</b> Transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashishni raqamli davr sharoitida takomillashtirish: muammolar va yechimlar.....	143
<b>Olimjonov X.M.</b> Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini takomillashtirish.....	152
<b>Oʻrinov O.L.</b> Mintaqaviy jinoyatchilikning oʻziga xos xususiyatlari (uyushgan jinoyatchilik va odam savdosiga qarshi kurash faoliyatlari misolida).....	160
<b>Tursunbayev D.T.</b> Mintaqaviy jinoyatchilik taʼsir etuvchi omillarning kompleks monitoringi: kriminologik bashorat va oldini olish mexanizmlari.....	164
<b>Rixsimov K.A.</b> Samarqand viloyatida sodir etilgan oʻgʻrilik jinoyatlarining kriminologik tahlili.....	172
<b>Abdumalikov A.A.</b> Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasi va oldini olish muammolari hamda yechimlari fargʻona viloyati misolida.....	179
<b>Oʻrinova D.A.</b> Fargʻona viloyatida ayollar jinoyatchiligining holati, tuzilishi va dinamikasi hamda respublika bilan qiyosiy tahlili.....	190

<b>Umirzakov B.A., Jurayev Z.A.</b> Mintaqaviy (hududiy) jinoyatchilik dinamikasi va tendensiyalari: o'g'irlik jinoyati misolida.....	202
<b>Magrubov M.M.</b> Jamoat xavfsizligini ta'minlashda dronlarni ishlatishda horijiy davlatlar tajribasi.....	210
<b>Jurayev Z.A.</b> Mintaqaviy jinoyatchilik dinamikasi kontekstida o'g'irlik jinoyatining kriminologik tavsifi va uning oldini olishni takomillashtirish.....	216
<b>Saydaliyev I.S.</b> Yoshlar o'rtasida hududiy jinoyatchilikning ijtimoiy omillari va uni oldini olishda oliy ta'lim tizimining ro'li (tarbiyasi qiyin talabalar misolida).....	222
<b>Noraliev T.E.</b> Jinoyat predmetining jinoyat obyekti va jabrlanuvchi bilan o'zaro nisbati: nazariy va amaliy yondashuv.....	230
<b>Raximova S.A.</b> Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyati tarkibining sub'ekti va subyektiv tomon xususiyatlari.....	240
<b>Bekmurodova U.A.</b> Jinoyat qonunining davlat hududidan tashqarida amal qilishi haqidagi ilmiy g'oyalar evolyutsiyasi.....	252
<b>Narbayeva N.J.</b> Zamonaviy jamiyatda jinoyatchilikka ta'sir qiluvchi omillar.....	266
<b>Samatova D.Yu.</b> Ijtimoiy reintegratsiya: jazoni o'tab chiqqan ayollar bilan ishlashning dolzarb yo'nalishlari.....	270
<b>Egamberdiyeva D.</b> Voyaga yetmagan shaxslar delikt javobgarligiga oid qonunchilikning tizimli tahlili.....	276
<b>Xalilova Z.Z.</b> Ojiz ahvoldagi shaxslarni jinoyat-huquqiy himoya qilishning ijtimoiy-huquqiy zarurati.....	282
<b>Ibragimov A.I.</b> Sirdan ehtiyot chorasini tanlash institutining qonunchilik bo'shliqlari va takomillashtirish yo'llari.....	291
<b>Nazirjonov N.N.</b> Internet tarmog'i resurslarida saqlanayotgan raqamli ma'lumotlarni qayd qilishning kriminalistik jihatlari: nazariy-huquqiy tahlil.....	300
<b>Ro'ziyeva G.S.</b> Raqamli makonda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning zamonaviy va samarali mexanizmlari.....	313
<b>Pulatov B.A.</b> Jinoyat qonunchiligida blanket normalar shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-huquqiy tahlili.....	323
<b>Normanov O.E.</b> Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatini o'xshash jinoyatlardan farqlash masalalari.....	339
<b>Xodjayev Sh.M.</b> O'zbekiston respublikasi jinoyat huquqida jinoyatda ishtirokchilik instituti: murakkab shakllarni kvalifikatsiya qilish muammolari va xorijiy tajribaning qiyosiy-huquqiy tahlili.....	352
<b>Kurbanaliyev S.A.</b> O'zbekiston jinoyat huquqida jazolarni erkinlashtirish va probatsiya tizimini takomillashtirish masalalari.....	362
<b>Matchanov A.A.</b> Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun'iy intellekt davrida raqamli kriminologiya: jinoyatlarning oldini olishning huquqiy asoslari va algoritmlari.....	368

**“MINTAQAVIY JINOYATCHILIKNING DINAMIKASI VA  
TENDENSIYALARI” NOMLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**(2026-YIL 15-APREL)**

Muharrir: tuzuvchilar tahririda

Sahifalovchi: S.A. Isayev

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti  
tahririy noshirlik markazida tayyorlandi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo-ulug‘bek tumani,  
Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi, 243-uy.